R.Xizrich va M. Piterlar «Tadbirkor, ya'ni o'ylab ish ko'ruvchi kishi - korxona ishini yurgizishga moyil, qobiliyatli, katta hajmdagi ishlarga qo'l ura oladigan, jasur, cho'rtesar va bunday ishlarga botir bo'lgan kishidir»-deb ataganlar.

Rossiyalik olimlardan A.G.Aganbegyan iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, boylik yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohasini o'z ichiga oladigan soha ekanligi ammo, unga moliya-kredit, birja faoliyati kirmasligini ta'kidlagan bo'lsa, A. Komov o'zining «Russkoye ekonomicheskoye obshestvo» jurnalida bergan ilmiy maqolasida kichik biznes subyektlarini iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismi ekanligi va uning rivojlanishida kredit tizimining ahamiyati to'g'risida fikr yuritgan. Umuman olganda, kishining tadbirkorlik holati - bu tashabbuskorligi, novatorligi, manfaatdorligi, ishga eskicha emas, yangicha yondashishdir.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik – bu iqtisodiy fenomen, biznes kategoriyasi. Biznes bilan tadbirkorlik sinonim emas, lekin yaqin tushunchalardir. Biznes tushunchasi tadbirkorlik tushunchasidan kengroqdir.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik deganda fuqorolarning yangi g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan foyda olish hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan amaldagi qonunlar doirasida o'zining tavakkalchiligi va moddiy hamda ma'naviy javobgarligi asosida amalga oshiradigan mustaqil, tashabbuskor faoliyat tushuniladi.

Tadbirkor deganda o'zining ma'lum bir miqdordagi moliyaviy mablag'ini tavakkal qilgan holda bozorga yangi g'oya, mahsulot, ish va xizmatlar bilan kirib boruvchi amaldagi qonunlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi ishbilarmon shaxs tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlarni amalga oshirishning obyektiv zaruriyati tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

TAHLIL NATIJALARI

Iqtisodiy institutlarni joriy etgan rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, ularda jamiyatni o'z holicha tashlab qo'ygan xolda o'zgartirish hyech qachon tezlik bilan amalga oshmagan. Xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlarga bo'lgan subyektiv zaruriyatni o'z vaqtida anglash insoniyat uchun juda muhim. Buning qanchalik darajada muhim ahamiyat kasb etishini iqtisodiy inqirozlar misolida ko'rib chiqish mumkin. 1929-1933-yillarda AQShda yuzaga kelgan va keyinchalik dunyoning bir necha mamlakatiga tarqalgan Buyuk depressiya mamlakat iqtisodiyotida institusional o'zgarishlarni vaqtida amalga oshirishning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. AQSh Prezidenti Ruzvelt iqtisodiy inqirozdan chiqib ketishda nostandart yechimlar, ya'ni iqtisodiyotni davlat tomonidan faol tartibga solish siyosatini qo'lladi. AQShda ishsizlik darajasi 33 foizga yetdi, 1933-yilgi YaIM 1929-yilgiga nisbatan 31 foizga kamaydi, inflyasiya darajasi ortib bordi. Ruzvelt amaliyotga minimal ish haqi va ish vaqti, ish sharoitlari, aksariyat kompaniyalar uchun halol raqobat kodekslarini kiritdi, Federal zahira tizimining vakolatlarini kengaytirdi, Favqulodda yordam federal boshqarmasi kabi yangi institutni joriy etdi. Kompaniyalar ma'lum darajada ishsizlarni ish bilan ta'minlashi, minimal ish haqini to'lash va ish sharoitlarini talab darajasiga keltirishga majbur bo'ldi. Amalga oshirilgan institusional o'zgarishlar natijasida 3 yil ichida 10 million yangi ish o'ri yaratildi, inflyasiyaning ortishi va YaIMning pasayishi to'xtatildi. Institusional tizimning yangi holatga o'tishi davrida davlat bosh islohotchilik vazifasini bajarishi o'z ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Davlat institusional o'zgarishlarni amalga oshirishda zamonaviy institutlarni yaratish va mavjud vaziyatga mos muqobil institutlarni tanlash vazifasini bajardi. AQSh davlati 1929-1933-yillardagi iqtisodiy inqirozdan chiqib ketishda bu vazifani samarali bajara oldi.



Jumladan, zamonaviy Xitoyda institusional o'zgarishlar yuqori samara berdi. Yigirma yildan ortiq vaqt davomida Xitoy YalMning o'sishi yiliga 10 foiz darajasida saqlanib, 2014-yilda dunyoning eng katta iqtisodiyotga aylandi [3]. Ba'zi Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilgan institusional o'zgarishlarni ham tahlil etish va ulardan tajriba o'rganish mumkin. Bularga Osiyo yo'lbarslari [4], Yaponiya, Tailand kabi mamlakatlar kiradi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Tailand kabi mamlakatlar zamonaviy g'arb texnologiyalaridan samarali foydalangan holda, o'zlarining ijtimoiy-madaniy poydevorlarini saqlab qolishdi va chinakam iqtisodiy sakrashni amalga oshirishdi. Ular islohotlarining muvaffaqiyati o'zlarining asosiy institutlarni saqlab qolishi hamda sharq va g'arb institutlarining yangicha qorishmasini yarata olganligidadir. Shunday qilib, aytish mumkinki, g'arb mamlakatlari tarixiy tajribalarining ba'zi unsurlarini sharq institusional tizimiga moslashtirish amaliyotda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi. Demak, yangi va samarali faoliyat yuritadigan bir-birining vazifalarini takrorlamaydigan institutlarning joriy etilishi mamlakatlarni rivojlantirish yo'nalishini belgilovchi asosiy omildir.

Iqtisodiy institutlarning amal qilish va o'zgarish qonuniyatlarini tahlil etish, bu jarayonda davlat va real sektor o'rnini aniqlash ma'lum bir me'zonlar asosida amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot jarayonida institusional o'zgarishlarni tasniflashda turli xil me'zonlar bo'yicha yondashildi va ularni amalga oshirish tavsifiga aniqlik kiritildi.

Ushbu jarayon ularning mavjud institusional tuzilma doirasida, ya'ni asosiy qoidalar va me'yorlarni saqlagan holda kechadi. Bu davlatning tanlangan yo'nalishidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Institusional o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat yuqorida ko'rsatgan barcha o'zgarish klassikasiyalarini qo'llashi mumkin. Ammo, bu jarayonda institutlardagi o'zgarishni milliy unsurlar bilan to'ldirish talab qilinadi. Xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor subyektlari o'rtasida kelishuv talablari mavjud bo'lishi lozim. Chunki, institusional o'zgarishlar mavjud tartiblarga to'g'ri proporsional, jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga teskari proporsionaldir.

Iqtisodiyotda davlat rolining pasayishi va vazifalarining o'zgarishi nafaqat ularni bozor mexanizmlari bilan almashtirish, balki, nodavlat tuzilmalarni ushbu jarayonga tobora ko'proq jalb qilish orqali sodir bo'lishida kuzatiladi. Ushbu shakllardan biri davlat xususiy-sherikchilikdir. L.Abalkin fikricha - "bu jarayon fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan hal qilinadi" [5].

Fuqarolik institutlaridagi o'zgarishlar endogen omillar hisobiga amalga oshiriladi. Ekzogen omillar institutlar bilan bog'liq muqobil o'zgarishlarni tezda o'zlashtiradi va iqtisodiyotning samarali amal qilishini tezlashtiradi. Shu sababli egzogen omillar muhim va ularning ta'sirida ichki mexanizmlar amal qilish qonuniyatlarini alohida tadqiq etish talab etiladi.

D.Nort fikricha - "iqtisodiyot subyektlarining institusional muhitni rivojlantirish va o'zgartirish uchun harakatlari ba'zida FTT, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, texnologik, tabiiy shartlar va talablarga mos kelmaslikni keltirib chiqaradi. Bunda institusional o'zgarishlar ichki sabab-oqibat va davlatda shakllangan institutlarning qayta qurilishi asosida hal etiladi"[6]. Institusional o'zgarishlarning aksariyati institusional tizim va iqtisodiy faoliyatning ichki muhitida ma'lum bir transformasiyani amalga oshiradi. Shu sababli biz institusional o'zgarishlarga, avvalambor, egzogen omillar ta'sirini o'rganishimiz lozim.

Aksariyat holatlarda institusional o'zgarishlarning obyekt bo'lib tadbirkorlar qatnashadi. Ular o'z subyektiv nuqtai-nazaridan tanlovni amalga oshiradi va qaror qabul qiladi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida to'plangan tajriba va orttirilgan bilimlarga asosanib aqliy modellarda umumlashtiradilar. Bu borada iqtisodchi-olim Y.Shumpeter yozishicha: "bizning fikrlarimiz, his-tuyg'ularimiz va harakatlarimiz ko'pincha individual yoki guruh darajasida biz uchun odatiy holga aylanib qoladi, ko'p ishlarni avtomatik tarzda bajarishga imkon beradi va ishlab chiqarish jarayonidagi vazifalarni bajarilishini sezilarli darajada osonlashtiradi"[7].

Xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institutlarni rivojlantirish muammolari uy xo'jaliklarining pirovard iste'molchi sifatidagi o'rniga ham bog'liq. Jahon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, XX-asrning ikkinchi yarmida ushbu muammo jamiyatda ko'plab yangi iqtisodiy institutlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu institutlarga turli xil jamiyatlar, ittifoqlar va harakatlarni kiritishimiz mumkin. Ularning ish samaradorligi ko'p jihatdan a'zo bo'lganlarning faolligiga bog'liq. Shu sababli iste'molchilarning institusional o'zgarishlar subyekt sifatidagi o'rni kuchayib bormoqda. Shu bilan birga ularning o'z tajribasi, bilim va aqliy modellarini amalga oshiradigan maxsus institutlar shakllanishi haqida gapirish mumkin. Bunga misol sifatida "yashillar" deb ataladigan partiyalar, iste'molchilar jamiyatlari va boshqalarni keltirish mumkin.

Ularning harakati institutlardagi innovatsion faoliyatda aks etadi. Y.Shumpeter innovatsion faoliyatdagi o'zgarishlar sifatida mavjud mahsulotga tegishli har qanday sezilarli o'zgarishni, jarayonlar va tashkiliy tuzilmalarni ko'rsatib bergan. U "innovatsion o'zgarishlarning besh yo'nalishini ajratib ko'rsatadi:

- yangi texnika, texnologik jarayonning tadbiriq etilishi yoki ishlab chiqarishning innovatsion mahsulotlar bozori mavjudligiga asoslanadi;
- yangi sifatlariga ega innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishi;
- innovatsion xom ashyoning iste'moli;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar;



- yangi bozorlarning o'zlashtirilishi"[8].

Xizmat ko'tsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlar jarayonida tadbirkorlarning ma'lum bir mahsulot, ya'ni, institutlarga bo'lgan talabining qondirilishi muhim. Ushbu talab institutlarni shakllanish bo'yicha imkoniyat yaratish, ma'lum xarajatlar evaziga muqobil tanlov qilish va institusional qayta qurishni amalga oshirishga sababchi bo'ladi. Bu o'rinda tadbirkorlar doimiy daromad keltirmaydigan institutlarni o'zgartirish yo'llarini ko'rib chiqishadi hamda eng maqbul variantni tanlashadi.

Iqtisodiy tizimlar o'zgarishining sababi amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizim subyektlari talabiga javob bermasligi va shuning natijasidagi qarama-qarshiliklarning keskinlashishidir. Institusional o'zgarishlarning asosiy ichki sababi ham aynan shu muammo bilan bog'liq. Bu ham o'tish davri, ham bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llanilishi mumkin.

Xizmat ko'tsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlarning ichki omillaridan tashqari tashqi omillar ham muhim o'rin tutadi. Tashqi omillar davlatning rivojlangan mamlakatlar yoki halqaro tashkilotlar ta'siri doirasida namoyon bo'ladi. Rossiyaning Ukrainadagi harbiy operatsiyasi orqasidan AQSh va Yevropa mamlakatlari bosimi ostida dunyoning aksariyat davlatlari Rossiyaga nisbatan sanksiyalar e'lon qildi. Lekin, ba'zi mamlakatlar betarafligicha qolmoqda. Ular jumlasiga Xitoy, Turkiya, Hindiston, Braziliya va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. AQSh va Yevropa davlatlari o'z kreditlarini rivojlanayotgan davlatlarga kiritish hamda ular bilan savdo-sotiqni rivojlantirishda o'zlarining shartlarni qo'yib, iqtisodiy institutlar o'zgarishini belgilashi mumkin. Jumladan, O'zbekiston paxta tolasi va u bilan bog'liq tovarlarni sotib olishda bolalar va jamiyatning zaif bo'g'inini majburiy ishlatish yo'q qilish talabi bilan chiqqan. Bu esa O'zbekiston xukumatini shu bilan bog'liq bo'lgan qator hujjatlar ishlab chiqish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga majbur qiladi. Natijada 2022-yil mart oyida O'zbekiston yetishtirgan paxta tolasiga qo'yilgan boykot olib tashlandi.

Xizmat ko'tsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlarning yana bir muhim manbai jahon iqtisodiyotining globallashuvi va integrasiyaning chuqurlashishi natijasida davlatlar o'rtasidagi institusional almashinuvdir. Ushbu jarayon o'zlashtirilayotgan institutning xususiyati, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va amaldagi institusional tizim tarkibidan kelib chiqib turli mamlakatlarda har xil amalga oshadi.

Rivojlangan mamlakatlar asosiy institutlari har xil turlari bilan ajralib turadi, mazmunan rivojlangan davlatga xos institusional o'zgarishlar institusional tizimi eskirgan va zaif davlatga kiritilishi kuzatiladi. Bunga misol qilib iqtisodiy jihatdan qoloq va kam rivojlangan davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ishbu institusional o'zgarishlardan maqsad iqtisodiy rivojlanishga erishish, aholi turmush farovonligini oshirish va jahon hamjamiyatiga integrasiyani kengaytirishdir.

Umuman, rivojlangan mamlakatlarda sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan institutlar xalqaro maydonda to'g'ridan-to'g'ri va ongli ravishda o'zaro almashiladi va o'zlashtiriladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, hozirgi kunda sharq va g'arb institusional matrisalarining integrasiyasi va asosiy institutlarning takrorlanishi hamda nusxalanishi jarayoni tezlashib bormoqda.

G'arbiy xizmat ko'tsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional matrisaga ega davlatlarda ma'muriy bo'linish tamoyili noto'g'ri ishlaganday tuyuladi. Bu qarash mamlakatda ish tashlashlar, nizolar va qarama-qarshiliklar sababli shakllanadi. Sharqiy institusional tuzilishga ega davlatlarda esa, teskari jarayonlar kechmoqda, jumladan, ichki tinchlik va barqaror o'sish tendensiyalari saqlanib kelmoqda.

Xizmat ko'tsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida eski institusional tizim iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi va hatto rivojlanishni butunlay to'xtatishga olib kelishi mumkin. Istiqbolli barqaror rivojlanish yo'lini belgilashda muqobil institutlarni vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanish yo'llari va imkoniyatlarini tahlil etish lozim. Jumladan, O'zbekistonda 2019-yilgacha faoliyat yuritgan Iqtisodiyot vazirligining davr talabi tufayli ikki marotaba nomi va asosiy vazifalarining o'zgarishi ro'y berdi. Bu birinchi marta 2019 yil "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligini tashkil etish to'g'risida"[9] gi, ikkinchi bor 2020 yil "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"[10] gi qaror bilan amalga oshdi.

Mamlakatda eski iqtisodiy institutlarni yangisiga almashtirish zaruriyati iqtisodiyotdagi turg'unlik, ishsizlik va inflyasiyaning oshishi, tashqi muhitdagi o'zgarishlar oqibatida vujudga keladi. Shu bilan birga mamlakatni yangi taraqqiyot darajasiga olib chiqish va davlatdagi siyosiy o'zgarishlar yangi institutlarni joriy etilishiga olib keladi. Odatda, iqtisodiyotda bu holat "o'tish davri" deb ataladi va erkinlik darajasi oshishiga, avvalgilaridan tubdan farq qiladigan yangi iqtisodiy institutlarni amalga kiritish bilan kechadi.

Institusional o'zgarishlar iqtisodiyot subyektlarining ongli harakatlari natijasida hamda tabiiy ravishda sinov va xatolar orqali paydo bo'lishi ham mumkin. Doimiy texnologik, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar eski institutlarni yangilariga almashinishiga olib keladi.

Bu iqtisodiyotdagi institusional o'zgarishlar jarayonida qarama-qarshiliklar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. O'zbekistonda 2016-2022-yil holatiga ko'ra jamiyat va iqtisodiyotning real sektoridagi mavjud vaziyat ma'lum darajada institusional o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Qishloq xo'jaligidagi



past samaradorlik va tadbirkorlik faoliyatini yuritish motivasiyasining sustligi, valyuta munosabatlaridagi xufyona iqtisodiyot ko'lamining yuqoriligi, korrupsiya darajasining nisbatan yuqoriligi, kreditlash tizimi qamrovining kamligi kabi muammolar mavjud. Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizda prezidentlikka saylanishi bilan iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi, institusional o'zgarishlarning yangi davri boshlandi. Ushbu institusional o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- Prezident va bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi;
- inson huquqlarini himoya qilish, majburiy va bolalar mehnatini bartaraf etish choralari ko'rildi;
- kadrlar siyosatida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Nufuzli xorijiy OTMlarning filiallari va qo'shma ta'lim dasturlari ishlab chiqildi;
- valyutalar kursini belgilashda to'liq bozor instrumentlariga o'tildi, xorijiy valyutalarning erkin konvertasiyasini amalga oshirish yo'lga qo'yildi;
- soliq institutida tubdan o'zgarishlar ro'y berdi, daromad solig'i progressivdan proporsional shaklda undirila boshlandi;
- agrar sektorda tub islohotlar amalga oshirildi, agrar va sanoat sektorlarining integratsiyasi kuchaytirilishi natijasida butunlay yangi institut-klastlar paydo bo'ldi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida preferensiyalar oshdi, tadbirkorlik faoliyatining yangi yo'nalishlari rag'batlantirilmoqda;
- kreditlash tizimida yangi kredit turlari joriy etildi, kredit berish shartlari soddalashtirildi va muddatlari qisqartirildi;
- raqamli texnologiyalar keng qo'llanilishi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim qadamlar qo'yildi;
- xorijiy va qo'shni mamlakatlar bilan manfaatli, do'stona aloqalar o'rnatildi;
- kambag'allikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yuqoridagi xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlar va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar birlashmasi sifati Yangi O'zbekiston va Uchinchi renessans Kontsepsiyalari tashkil topdi. Bu jarayon nafaqat rasmiy balki norasmiy institutlardagi o'zgarishlar kechishi bilan e'tiborga loyiq. Mazkur institusional o'zgarishlar qisqa vaqtda o'z samarasini bera boshladi. Institusional o'zgarishlar insonlar tomonidan amalga oshiriladi va inson manfaatlariga qaratilishi lozim. Ular insonlar faoliyatining mahsuli bo'lib, ushbu faoliyat doimiy ravishda turli institutlarning qo'shilishi va loyihalanish jarayonidir. Amalga oshirilayotgan institusional o'zgarishlar mavjud jamiyatdagi muammolarni hal qilishga olib kelsa, ular jamoat ongida mustahkamlanadi va norasmiy institut-me'yor sifatida amal qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlar konsepsiyalarini talqin etish natijasida ishlab chiqarish jarayonida ochiq yoki yashirin ko'rinishda faoliyat yuritadigan institutlarni ajratib olish mumkin. Yangi me'yorlar doimiy ravishda paydo bo'ladi. Iqtisodiy tizimga mos keladigan me'yorlar ishlaydi va rivojlanadi, mos kelmaydiganlari esa, vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

Institusional tuzilmalarning barqarorligi ijtimoiy hayot shakllarining o'zgarmasligini anglatmaydi. U nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning obyektiv chegaralarini, balki institusional o'zgarishlarning yo'nalishi va mantig'ini ham belgilaydi. Xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida institusional o'zgarishlar iqtisodiy tizimlarning manfaatlarini to'laroq qondirish asosida shakllantiriladi. Jumladan, AQShda Rokfellerlar iqtisodiy manfaati tufayli bir qator institutlar shakllanganligini bilamiz.

Mafkuraviy sohada faoliyat yuritadigan institutlarga milliy g'oya, din, turli konsepsiyalar va nazariyalar kiradi.

Asosiy institutlar jamiyatdagi real sektor faoliyatining asosiy sohalari o'rtasidagi muhim bo'g'in sifatida o'z mazmunini saqlab qolsa ham, ularning o'zgaruvchan xarakteri tufayli hayotda doimo rivojlanib boradi.


Institusional o'zgarishlar ilmiy asoslangan va tajribadan o'tgan bo'lsa, ularning samarali ishlab ketish ehtimoli yanada ko'payadi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Institusional o'zgarishlarning evolyusion nazariyasi ongli ravishda amalga oshiriladigan jarayon sifatida o'rganilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son, 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar-Kelajagimiz Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680-son, 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila — tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-son va 2018 yil 14 iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish (O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi VII-bob, 28-modda), barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda)[11];



– O‘zbekiston Respublikasining qonunlari. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (1996-y.), “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi (2019-y.), “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993-y.), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999-y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000-y.) qonunlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- “O‘zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasining” ning buyruqlari va farmoyishlari;
- Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional tizimi¹.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional huquqiy ta‘minotini takomillashtirish borasida bir qator masalalar o‘z yechimlarini kutmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuniga zamonaviy xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, xizmat ko‘rsatish sohasini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo‘nalishida institutsional o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida jamiyat subyektlarining o‘z manfaatlarini to‘laroq qondirishga intilishini tushunish mumkin. Bunda tadbirkorlik subyektlari ko‘proq daromad va foyda olishga, uy xo‘jaliklari o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondirish va ko‘proq nafililikka ega bo‘lishga xarakat qiladi. Demak, iqtisodiyotning har bir subyekti o‘z manfaatlarini to‘laroq qondirishga intiladi. Bu intilishlar manfaatlar qarama-qarshiligini keltirib chiqaradi va dinamik jarayon sifatida doimiy harakatda bo‘ladi. Jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olgan va jamiyat manfaatlariga xizmat qilgan institutlar barqarorlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

¹ Muallif ishlanmasi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёт-матбаа уйи 2023 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги PQ-4105-сон "Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва саноат вазирлигини ташкил этиш тўғ'рисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/4157070>
3. 10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги PQ-4653-сон "Ўзбекистон Республикаси иқтисодий тараққиёт ва камбағ'алликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг тизим ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш тўғ'рисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/4776766>
4. Нелсон Р., Уинтер С. Эволюционная теория экономических изменений. М.: Финстатинформ, 2000, 31-32 б.
5. Shodibekova D. A., Shodibekov D. I. © "Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari" (o'rta maxsus o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma). – T.: , Iqtisodiyot 2013. 226 bet.
6. Жаҳон банки маълумотида асосан 2014 йил якунлари бўйича ЯИМ бўйича Хитой ЯИМ АҚШ ЯИМ ни ортда қолдирди. World development indicators 2016. World development indicators 2016.
7. Осиё йўлбарсларига Жанубий Корея, Сингапур, Гонконг ва Тайван киради. <https://www.rcpm.ru/fourasiantigers>.
8. Абалкин Л. Рол государства в становлении и регулировании рыночной экономики. Вопросы экономики. 1997. № 6. 7 б.
9. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики, М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997. 121 б.
10. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М. «Эксмо», 2007. 179 б.
11. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М. «Эксмо» 2007. С. 158.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
